

## Xizmat ko'rsatish bo'yicha

### SHARTNOMA 10/01

Toshkent sh.

2022-yil 4-oktabr

Keyingi o'rnlarda "**Buyurtmachi**" deb yuritiladigan Toshkent davlat yuridik universiteti nomidan 2020-yil 25-sentyabrdagi 08-176-son buyruq asosida ish yurituvchi prorektor A.A.Iminov bir tomondan va ikkinchi tomondan, keyingi o'rnlarda "**Ijrochi**" deb yuritiladigan "ZINIT-MET" ma'suliyati cheklangan jamiyati nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor M.Gapurov mazkur xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzdilar:

#### I. Shartnoma predmeti

1. **Ijrochi** texnik topshiriqqa asosan Toshkent davlat yuridik Universitetga metal konstruksiyalardan o'lchami 4000x2000x2500 mm bo'lgan 2 dona velosiped turar joyi yasash va o'rnatish xizmatini ko'rsatish majburiyatini, **Buyurtmachi** esa **Ijrochiga** bajarilgan ishlarni qabul qilish va to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

#### II. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

2.1. Xarid komissiyasining 2022-yil 29-sentyabrdagi bayonnomasiga (lot raqam 22110012153400) muvofiq, **Ijrochi** tomonidan bajariladigan ishlar qiymati 19 800 000 (o'n to'qqiz million sakkiz yuz ming) so'mni (barcha soliqlar shu jumladan QQS bilan) tashkil etadi.

2.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi **Buyurtmachi** tomonidan o'zgartirilganda;

ishlarni bajarish bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

2.3. Ishlarni bajarish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.4. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar **Buyurtmachi** bilan **Ijrochi** o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### III. Ijrochi majburiyatları

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha **Ijrochi** mazkur shartnomaning I bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

ko'rsatilgan xizmat natijasi bo'yicha 1 yildan kam bo'Imagan kafolat beradi.

mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun subijrochilarini jalg qilgan taqdirda ishlarni zarur tarzda bajarilishi uchun **Buyurtmachi** oldida javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

#### IV. Buyurtmachining majburiyatları

4.1. Mazkur shartnomaning I bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun **Buyurtmachi**:

ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazoratni va mazkur shartnomada qayd etilgan **Ijrochi** tomonidan qabul qilingan majburiyatlarga rioya etilishini nazorat qilish, **Ijrochidan** tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

**Ijrochining** barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

ushbu shartnoma shartlariga muvofiq bajarilgan ishlarni haqini dalolatnomasi rasmiylashtirilgandan so'ng 10 (o'n) kunda **Ijrochiga** to'lash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

## V. Ishlarni bajarish muddatlari

5.1. Ijrochi Xizmatni Shartnama kuchga kirgan kundan 10 kalendar kun ichida bajarilishini ta'minlaydi.

5.2. Ijrochi Shartnama kuchga kirgandan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

## VI. To'lovlar va hisob-kitoblar

6.1. Buyurtmachi Ijrochiga shartnama bo'yicha ishlarni umumiy qiymatining 30 foizi ya'ni 5 940 000 (besh million to'qqiz yuz qirq ming) so'm miqdorida mablag'ni shartnama g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tgan kundan keyin 5 (besh) ish kunida oldindan o'tkazib beradi.

6.2. To'loving qolgan qismi ishlar haqiqatda bajarilganidan so'ng Ijrochi tomonidan taqdim etilgan va Buyurtmachi tomonidan imzolangan schet-faktura va ishlar bajarilganligi haqidagi dalolatnomaga asosan oldindan to'lojni hisobga olgan holda 10 (o'n) kun ichida amalga oshiradi.

## VII. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

7.1. Agar ushbu shartnama bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnama bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

7.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Ijrochi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

7.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnama bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## VIII. Shartnomani bekor qilish

### 8.1. Buyurtmachi:

shartnama kuchga kirgandan keyin ishlarni bajarishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lмаган sabablarga ko'ra Ijrochi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

Ijrochi tomonidan shartnama shartlari ishlarni bajarish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

### 8.2. Ijrochi:

ishlarning bajarilishi Ijrochiga bog'liq bo'lмаган sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

8.3. Shartnama bekor qilinganda Buyurtmachi va Ijrochining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan ishlarni 5 (besh) kun muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Ijrochiga to'laydi.

8.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

8.5. Shartnama bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

8.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

## **IX. Tomonlarning mulkiy javobgarligi**

9.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

9.2. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun **Buyurtmachi Ijrochiga** kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi **Buyurtmachini** shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlarni hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun **Buyurtmachi Ijrochiga** o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

**Buyurtmachi** tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani va ushbu shartnoma bilan bog'liq majburiyatlar (lozim darajada) bajarmaganligi **Ijrochi Buyurtmachiga** muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlarni qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlarni qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash **Ijrochini** ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalananadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

9.5. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## **X. Nizolarni hal etish tartibi**

10.8. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar talabnomasi yuborish orqali hal etadi, aks holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

## **XI. Alohiда shartlar**

11.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik organida ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrga qadar amal qiladi.

11.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lган 2 nusxada tuzildi.

11.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

**11.4. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni **Buyurtmachi** xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qiymatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilihiga kafolat beradi.**

**11.5. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon Buyurtmachi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlari, shu jumladan, korruptsiyaga oid huquqbazarlik sodir yetishga**

majburlashdan iborat faktlar duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

“1008” ishonch telefoni; Telegram-kanali (“@anticorbot”); Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki yelektron pochta.

## XII. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:

### Buyurtmachi

Toshkent davlat yuridik universiteti

**Mazil:** Tashkent sh. Yunusobod tumani,  
Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy  
h/r 400910860262667094100009002  
MOLIYA VAZIRLIGI G’AZNACHILIGI  
AMALIYOT BOSHQARMASI  
MFO 00014  
INN 201122349  
HKKM “MARKAZIY BANK”  
Toshkent shahar bosh boshqarmasi  
g’azna hisob: 23402000300100001010

M.O’



A.A.Iminov

### Ijrochi

“ZINIT-MET” MCHJ

Toshkent sh. Yunusobod t-n  
Yuqori Qoraqamish k-si 2-uy  
x/r 20208000204832624001  
Toshkent sh., AT Sanoat-Qurilish bank bosh ofisi  
MFO:00440  
ИНН:301509749

M.O’

Direktor



M.A.Gapurov

турсонжонов 6

D. Amsoyev